

HUNARMANDCHILIK SOHASIDA

STARTAP LOYIHALAR TANLOVI

TO'G'RISIDA NIZOM

I. Umumiq qoidalar

1. Ushbu Nizom hunarmandchilik sohasidagi yangi g'oyalar, loyihalar va texnologik yechimlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etiladigan startaplar tanlovini o'tkazish tartibini belgilaydi.
2. Tanlovdan maqsad – ekologik, turizmga mo'ljallangan va yuqori sifatli mahsulotlar yaratish orqali yangi bozorlarga chiqish va hunarmandlarni rag'batlantirish.
3. Tanlov "Hunarmand" uyushmasi va hamkor tashkilotlar tomonidan tashkil etiladi.

II. Tanlov shartlari

4. Tanlovda ishtirok etadigan har bir startap loyiha quyidagi 3 shartga mos bo'lishi shart:

- 1) Ekologik talablarga javob berishi (chiqindilardan ishlangan mahsulotlar yoki tabiiy ashyolardan tayyorlangan mahsulot);
- 2) Turizm shaxobchalarida sotilishi mumkin bo'lgan yangi mahsulot yoki suvenir xarakteriga ega bo'lishi;

3) Sifat va standart talablariga javob berishi, mahsulot yoki xomashyo yuqori darajada bo'lishi.

III. Tanlov bosqichlari

5. Tanlov quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

- Arizalarni qabul qilish;
- Saralash va ekspert baholash;
- Haqiqiy taqdimot (pitch);
- G'oliblarni aniqlash va mukofotlash.

IV. G'oliblarni rag'batlantirish

6. Tanlov g'oliblari:

- 1-o'rin: ____ mln so'm, sertifikat, medal;
- 2-o'rin: ____ mln so'm va diplom;
- 3-o'rin: ____ mln so'm moddiy ko'mak;
- Barcha ishtirokchilarga — ishtirok sertifikati.

V. Tanlovn moliyalashtirish

7. Tanlov davlat byudjeti, homiylar, grantlar va nodavlat tashkilotlar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

VI. Yakuniy qoidalar

8. Tanlov shaffof va adolatli mezonlar asosida o'tkaziladi.

9. Ushbu nizomga o'zgartirishlar kiritish huquqi tashkilotchiga tegishli.

10. Tanlov haqida ma'lumotlar 'Hunarmand' uyushmasining rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilinadi.